"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI" MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.05.2024.Ped.10.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI" MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

BARNOYEVA NILUFAR YOQUBOVNA

AKT YO'NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILIDA KOLLOKATSIYALARNI TIL KORPUSI ASOSIDA O'RGATISH METODIKASI

13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

UO'K: 811.111:378.147

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI" MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.05.2024.Ped.10.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

"TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO'JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI" MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI

BARNOYEVA NILUFAR YOQUBOVNA

AKT YO'NALISHI TALABALARIGA INGLIZ TILIDA KOLLOKATSIYALARNI TIL KORPUSI ASOSIDA O'RGATISH METODIKASI

13.00.02-Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Ped7421 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universitetida bajarilgan.

Dissertasiya avtoreferati uch tilda (ingliz, o'zbek, rus (rezyume)) "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universitetining veb-sahifasida (www.tiiame.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Sabirova Gulnoza Sadikovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Rasmiy opponentlar:	**Muradkasimova Kamola Shuxratovna** pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
	Nazarova Madina Ataxanovna Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti huzuridagi PhD.03/30.05.2024.Ped.10.07 raqamli Ilmiy kengashining 2025-yil «____»_____ kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100000, Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel.: (99871) 237-46-68, faks: (99871) 237-19-36, e-mail: devon@tiiame.uz, admin@tiiame.uz, tiiame@exat.uz).

Dissertatsiyasi bilan "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100000, Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani, Qori Niyoziy ko'chasi, 39-uy. Tel.: (99871) 237-46-68, faks: (99871) 237-19-36).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «____»_____da tarqatildi.
(2025-yil «____» _____ dagi ____ raqamli reyestr bayonnomasi.)

N.A. Kadirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o'rinbosari, fil.f.f.d., dotsent

K.Sh. Alautdinova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, fil.f.f.d., katta o'qituvchi

B.R. Samatova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, ped.f.f.d., dotsent

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashuv axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadallashib borayorgan hozirgi kunda xorijiy tillarni va AKTni puxta egallagan yosh mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj kuchaymoqda. Bunday salohiyatli kadrlarni tayyorlashda oliy ta'lim muassasalari muhim rol o'ynaydi. AQSH (Stanford Universiteti, Kaliforniya Universiteti, Berkli Universiteti), Buyuk Britaniya (Birmingham Universiteti, Kembrij Universiteti), Fransiya (Parij Diderot Universiteti, Lorreyn Universiteti), Rossiya (Moskva davlat universiteti, Sankt-Peterburg davlat universiteti) va boshqa mamlakatlarda chet tillarni o'qitish amaliyotiga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyat kasb etishi e'tirof etilgan. Ma'lumki, bugungi raqamli dunyoda tilni bilishning o'zi yetarli emas, talabalar axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan samarali shug'ullanish uchun zarur bo'lgan axborot texnologiyalari sohasidagi bilimlarga ham ega bo'lishlari kerak. Xorijiy tillarni o'qitish jarayonida talabalarning til o'rganish va axborot texnologiya savodxonligi zamonaviy metodlardan foydalanish orqali rivojlanmoqda.

Jahonda, xususan Yevropa davlatlarida til korpusining jadal rivojlanishi natijasida tilshunoslik sohasida, shuningdek, chet tillarni o'qitish jarayonida ham ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Tadqiqotlardan ma'lumki, til korpusi deganda ma'lum tamoyillarga muvofiq to'plangan, ma'lum bir mezon bo'yicha belgilangan va maxsus qidiruv tizimida ishlaydigan matnlar to'plami tushuniladi[1]. Hozirgi kunda til korpusining keng imkoniyatlari tufayli tilshunoslikka doir ma'lumotlarni qayta ishlash samaradorligi va tezligi oshib bormoqda va ularning ishonchliligi ta'minlanmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda xorijiy tillarni o'qitish tizimida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada "Ta'limning uzluksizlik tamoyili asosida ta'limning har bir bosqichi uchun xorijiy tillarni o'qitish metodikalari va tavsiyalarini ishlab chiqishni muvofiqlashtirish; xorijiy tillarni puxta o'zlashtirish va asosiy til ko'nikmalarini shakllantirish uchun video, o'yin, taqdimot, kino va boshqa o'quv materiallarini yaratish" kabi ustuvor vazifalar belgilangan[2]. Ushbu vazifalarni amalga oshirish chet tillarni o'qitishning yangi usul, metod, texnologiya va vositalarini ishlab chiqishni taqozo etadi.

---

[1] Birmingham University. Integrating digital skills in language learning: Initiatives at the University of Birmingham. – 2022. URL: https://www.birmingham.ac.uk; Cambridge University Language Centre. Language learning in the digital age: The University of Cambridge approach. – 2021. URL: https://www.langcen.cam.ac.uk; Lorraine University. ICT integration in higher education: Enhancing language teaching through technology. – University of Lorraine Press, 2023; Московский государственный университет. Роль информационных технологий в языковом образовании: Примеры из МГУ. – МГУ, 2020; Paris Diderot University (Université Paris Cité). Advancements in ICT for foreign language instruction: Experiences from Paris Diderot University. – 2021. URL: https://u-paris.fr; Stanford University. ICT in language education: Exploring digital competencies at Stanford. Stanford Digital Learning Initiative, – 2023; University of California, Berkeley. Foreign language acquisition and technology: Berkeley's innovative methods. – 2022. URL: https://www.berkeley.edu; Санкт-Петербургский государственный университет. Цифровая трансформация в преподавании языков в Санкт-Петербургском государственном университете. – 2021. URL: https://english.spbu.ru

[2] Постановление Президента Республики Узбекистан № ПП-5117 «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан» от 19 мая 2021 г.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 8-maydagi VMQ-124-son "Uzluksiz ta'lim tizimining xorijiy tillar bo'yicha davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrdagi PQ-1875-son "Chet tillarni o'rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 21-martdagi PQ-1730-son "Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada joriy etish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2017-yil 11-avgustdagi VMQ-610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitish sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"; 2017-yil 14-avgustdagi VMQ-625-son "Butunjahon internet tarmog'ida milliy kontentni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari; O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I."Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ma'rifiy va madaniy rivojlantirish, mamlakatda innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Resbuplikamizda ingliz tilini chet tili sifatida o'qitish J.J. Jalolov, G.T. Maxkamova, T.K. Sattorov, G.S. Sabirova, I.M. Tuxtasinov, K.Sh. Muradkasimova, N.K. Kushieva, H.X. Mamatkulov, D.M. Isroilova va F.R. Musayevalar, xorijda esa E.N. Solovova, A.V. Papov, E.I. Passov, Gavin Dudeney, Nicky Hockly va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan[3].

---

[3] Сабирова Г.С. Методика обучения местоимениям английского языка учащихся общеобразовательных школ на основе информационных технологий: Автореф. дисс... д. пед. наук. – Ташкент, 2017. – 140 с.; Jalolov J.J., Mahkamova G.T., Sh.S.Ashurov. English Language Teaching methodology. – Tashkent: Fan va texnologiya, 2015. – 336 p.; Махкамова Г.Т. Идея прогрессивизма в обучении языку специальности // Бўлажак чет тил ўқитувчисини йўналтириш технологияси: илмий-амал. конф. материал – Т., 2009. – С. 45-150; Сатторов Т.Қ. Бўлажак чет тили ўқитувчисининг услубий омилкорлигини шакллантириш технологияси. – Т.: ТДЮИ, 2003. – 192 б.; Маматкулов Х.А. Педагогларда хорижий тиллар бўйича касбий компетентликни ривожлантиришнинг ахборот-методик таъминотини такомиллаштириш: Дисс. …автореф. пед.фан. бўйича фалсафа док. – Т., 2017.– 46 б.; Соловова Е.Н. Методика обучения иностранным языкам: базовый курс лекций. Пособие для студентов пед. вузов и учителей/ Соловова Е.Н. – изд. 4-е. – М.: Просвещение, 2006. – 239 с.; Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – 2-е изд. – М.: Просвещение, 1991. – 223 с. Попова А.В. Методика обучения технике чтения студентов на основе языковых мультимедийных программ: Дис. … канд. пед. наук. – Тамбов, 2015. – 168 с.; Gavin Dudeney & Nicky Hockly. How to teach English with technology. – England: Pearson Education Limited, 2007. – 194 p.

Ingliz tili so'z birikmalarini o'qitishning metodik asoslari E.G. Borisova, N.N. Nuriddinov, M.K. Sharipov, L.Michael , J.Bahns, Ahmed Saeed Mater Salem ilmiy izlanishlarida tahlil etilgan[4].

Ingliz tilini til korpusi asosida o'qitish metodikasi bir guruh olimlarning ya'ni G.S. Sabirova, O.G. Gorina, P.V. Sisoyev, V.P. Zaxarov, S.Y. Bogdanova, M.S. Kogan, Y.V. Kulikova, G.R. Bennett, L. Flowerdew, T. Jons ishlarida tadqiq etilgan[5].

Ingliz tili kollokatsiyalarini til korpusi asosida o'rgatish masalalari J. Sinkler, Stefan Evert, K.A. Nikolaos, R.S. George, Dana Gablasova, Vaclav Brezina, T. McEnery va S. Pawel kabi olimlarning tadqiqot ishlarida o'z aksini topgan [6].

Yuqorida qayd etilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xorijiy mamlakatlar mutaxassislari tomonidan AKT yo'nalishi talabalariga ingliz tili kollokatsiyalarini til korpusi asosida o'qitish yuzasidan ko'plab tadqiqotlar olib borilgan, biroq O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishi talabalariga ingliz tili kollokatsiyalarini til korpusi asosida o'rgatish metodikasi keng tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti EnSPIRE-U-"English for Specific Purposes Integrated Reforms in Uzbekistan" (2020-2024) ilmiy-tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

---

[4] Борисова Е.Г. Что такое коллокации и как их изучать // Московский университет. — Москва, 1995. — С. 75.; Nuriddinov.N.N. Fors tilida qo'shma so'z va so'z birikmalarining distinktiv belgilari:Fil.fan.nom.(PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. —T., 2020, 50-b.; Sharipov M.K. Hozirgi o'zbek tilida so'z birikmalari sintaksisi masalasi // Toshkent. — 1978. — 150 p.; Lewis M. Teaching Collocation: Further Developments in the Lexical Approach // Language Teaching Publications. — Hove, 2000. — 190 p.; Bahns J. Lexical collocations: a contrastive view // ELT Journal. — 1993. — Vol. 47, No. 1. — P. 56–63.; Ahmed Saeed Mater Salem. The Impact of Teaching Collocations on the Students' Abilities in Translation: Thesis. — Cairo, 2020. — 120 p.

[5] Сабирова Г.С. Методика обучения местоимениям английского языка учащихся общеобразовательных школ на основе информационных технологий: Автореф. дисс... д. пед. наук. – Ташкент, 2017. – 140 с.; Горина О.Г. Использование технологий корпусной лингвистики для развития лексических навыков студентов-регионоедов в профессионально-ориентированном общении на английском языке // Вестник Санкт-Петербургского университета. Серия 9. Филология. Востоковедение. Журналистика. — Санкт-Петербург: Санкт-Петербургский государственный университет, 2014. — 29 с.; Sisoev P.V. Linguistic Corpus in Teaching Foreign Languages. — Moscow: Publishing House, 2024. — 100 p.; Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика: учебник для студентов направления «Лингвистика». — 2-е изд., испр. и доп. — СПб: СПбГУ, РИО филологического факультета, 2013. — 148 с.; Bennett G.R. Using Corpora in Language Learning Classroom//Corpus Linguistics for teachers//Michigan ELT , — 2010. — B.12-14. Kogan M.S., Kulikova E.V. Corpus as a resource for studying lexical and grammatical aspects of the English language for special purposes // IX International Scientific and Practical Conference "Translation. Language. Culture." (editor-in-chief L.V. Kotsyubinskaya) May 25, 2018 SPb.: Leningrad State University im. A.S. Pushkin, — 2018. — P. 97; Flowerdew L. Applying corpus linguistics to pedagogy: A critical evaluation // International Journal of Corpus Linguistics. — 2009. — Vol. 14. — P. 393–417.; Johns T. Chapter 2: Should you be persuaded: Two examples of data-driven learning // Classroom Concordancing. — Birmingham: ELR, 1991. — P. 1–13.

[6] Sinclair J. Corpus, Concordance, Collocation. — Oxford: Oxford University Press, 1991. — 200 p., Evert, S. Corpora and collocations // Institute of Cognitive Science. — Osnabrück: University of Osnabrück, 2007. — P. 1–35.; Nikolaos K.A., George R.S. From corpus-based collocation frequencies to readability measure. — 26 May 2014. — P. 1–20.; Gablasova D., Brezina V., McEnery T. Collocations in corpus-based language learning research: Identifying, comparing, and interpreting the evidence // The Journal of Language Learning. — 2017. — Vol. 67, No. S1. — P. 123–151.; Pawel S. Collocations, Corpora and Language Learning // Cambridge University Press. — Published online: 23 June 2023. — P. 1–18.

Tadqiqotning maqsadi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishi talabalariga ingliz tilida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasiga oid kollokatsiyalarni til korpusi asosida o'rgatish metodikasini takomillashtirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

til korpusini tadbiq etish orqali AKT yo'nalishi talabalarining kollokatsiyalarga doir bilimlarini aniqlash;

ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarini o'zlashtirishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan holatlarini (interferensiya) o'zbek tili so'z birikmalari bilan qiyoslash orqali aniqlash;

talabalarda sohaga oid kollokatsiyalar tushunchasini rivojlantiruvchi til korpusida mavjud konkordans va korpus menejerining didaktik xususiyatlari va metodik funksiyalarini aniqlash;

til korpusi ma'lumotlaridan foydalanib, AKT sohasiga oid kollokatsiyalarni o'qitish modelini takomillashtirish;

til korpusi asosida berilgan AKT sohasiga oid kollokatsiyalardan foydalangan holda retseptiv va produktiv mashqlarni ishlab chiqish;

AKT yo'nalishi talabalariga til korpusi asosida takomillashtirilgan metodika va yaratilgan didaktik materiallarni joriy etishning maqsadga muvofiqligi va samaradorligini asoslash.

Tadqiqotning obyekti sifatida AKT yo'nalishi talabalariga ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarini til korpusi asosida o'qitish jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini AKT yo'nalishi talabalariga ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarini til korpusi asosida o'qitish metodlari, o'zaro muloqot shakl (yakka tartibda ishlash, juft bo'lib ishlash, guruhlarda ishlash)larini tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi va darsliklar tahlili, pedagogik kuzatuv, pedagogik eksperement, matematik va statistik usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

AKT yo'nalishi talabalariga ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarini o'rgatishda ingliz va o'zbek tillardagi kollokatsiyalarni qiyoslash orqali leksik, grammatik, fonetik, sintaktik va semantik interferensiya holatlari aniqlashtirilgan;

AKT yo'nalishi talabalarining AKT sohasiga oid kollokatsiyalarga doir bilimlarini oshirishga yordam beradigan til korpusining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish orqali konkordans va korpus menejerining didaktik xususiyatlari va metodik funksiyalari aniqlashtirilgan;

AKT yo'nalishi talabalariga ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarini o'qitish jarayoniga til korpusi, CLIL (Content and Language Integrated Learning) va DDL (Data-driven Learning) yondashuvlarini tadbiq etish orqali o'qitish modeli takomillashtirilgan;

AKT yo'nalishi talabalarining ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarga doir bilimlari NOW korpusida mavjud autentik materiallarini qo'llash asosida tuzilgan reseptiv va produktiv mashqlar yordamida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarni oʻrgatish maqsadida til korpusi asosida ishlab chiqilgan mashqlar talabalarga kollokatsiyalarni kontekstda oʻrganish va ulardan aniq, ravon foydalanish imkonini bergan;

AKT yoʻnalishi talabalariga ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarni til korpusi asosida oʻrgatishning innovatsion modeli ishlab chiqilgan, oʻqitishda anʼanaviy usullarni oʻrniga zamonaviy yondashuv va metodlardan foydalanishning samaradorligi, taʼlim jarayonida duch kelingan qiyinchiliklar va talabalar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan;

AKT sohasiga doir kollokatsiyalarni oʻrgatishga yoʻnaltirilgan oʻquv mashgʻulotlari uchun til korpusi maʼlumotlarini tahlil qilish, tegishli kollokatsiyalarni aniqlash va natijalar asosida oʻquv materiallari hamda mashqlarni ishlab chiqish kabi bosqichlarni oʻz ichiga olgan dars ishlanmalari ishlab chiqilgan;

Til korpusining didaktik xususiyatlari va metodik funksiyalari tadqiq etilgan, AKT sohasiga oid kollokatsiyalarga doir mashqlarini oʻz ichiga olgan "Cyber Age" nomli qoʻllanma chop etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qoʻllanilgan yondashuv, metod, usullar va nazariy maʼlumotlarning ishonchli manbalardan olingani, olingan natijalarning matematik statistika metodi yordamida tahlil qilingani, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilingani hamda erishilgan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va oʻzbek tillaridagi kollokatsiyalarni qiyosiy tahlil qilish asosida tillararo interferensiyalarni aniqlanganligi, oliy taʼlim tizimida ingliz tilidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga oid ifodalarni til korpusidan foydalanib oʻqitishning metodologik yondashuvlari takomillashtirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati olingan natijalarning oliy taʼlim uchun moʻljallangan ingliz tili oʻquv-metodik majmualarini boyitishga, axborot texnologiyalari asosida oʻquv jarayonining samaradorligini oshirish hamda takomillashtirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. AKT yoʻnalishi talabalariga ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarini til korpusi asosida oʻrgatish metodikasini takomillashtirish boʻyicha oʻtkazilgan ilmiy tadqiqot natijalari asosida:

AKT yoʻnalishi talabalariga ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarini oʻrgatishda ingliz va oʻzbek tillardagi kollokatsiyalarni qiyoslash orqali leksik, grammatik, fonetik, sintaktik va semantik interferensiya holatlarini aniqlashtirishga oid tavsiyalar "Software development" nomli oʻquv qoʻllanma mazmuniga singdirilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus taʼlim vazirligining 2020-yil 14- avgustdagi 418-126-sonli maʼlumotnomasi). Natijada AKT yoʻnalishi talabalarining ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarni oʻzlashtirishi takomillashtirilgan;

til korpusining oʻziga xos xususiyatlarini tahlil qilish orqali AKT yoʻnalishi talabalarining AKT sohasiga oid kollokatsiyalar savodxonligini oshirishga xizmat

qiluvchi konkordans va korpus menejerining didaktik xususiyatlari va metodik funksiyalari aniqlanganligi haqidagi xulosalardan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida amalga oshirilgan F3-XT-20200930404 raqamli "Boʻlak-polinomial bazislarda signallar va tasvirlarga raqamli ishlov berishning intellectual dasturiy-texnik tizimlarini yaratishning nazariy metodologik asoslari" loyihasi doirasida foydalanilgan (Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti № 4003/05-2, 10.11.2024). Natijada AKT yoʻnalishi talabalarining til korpusidan foydalanish koʻnikmalari va komputer savodxonligiga doir bilimlari oshirilgan;

AKT yoʻnalishi talabalariga ingliz tilida sohaga oid kollokatsiyalarini oʻqitish jarayoniga til korpusi, CLIL (Content and Language Integrated Learning) va DDL (Data-driven Learning) yondashuvlarini tadbiq etish orqali oʻqitish modeli ishlab chiqilgan va "Cyber Age" nomli oʻquv qoʻllanma mazmuniga singdirilgan (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy va oʻrta maxsus ta'lim vazirligining 2019-yil 10-oktyabrdagi 1023-051-son guvohnomasi). Natijada AKT yoʻnalishi talabalarining ingliz tilida nutqiy kompetensiyalari rivojlantirilgan;

AKT yoʻnalishi talabalariga ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarni til korpusi asosida oʻrgatish metodikasi Toshkent shahri, Fargʻona va Samarqand viloyatlari oliy ta'lim muassasalari amaliyotiga tadbiq etilgan (Muhammmad al Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, TATU Fargʻona filiali, TATU Samarqand filiali 2024-yil 18-martdagi 09-13-874-son ma'lumotnomasi). Taklif etilgan metodikani qoʻllash natijasida AKT yoʻnalish talabalarining ogʻzaki va yozma nutqda ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarni toʻgʻri qoʻllash koʻnikmalarini egallash samaradorligini oshirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan oʻtkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Tadqiqot mavzusi boʻyicha 15 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta oʻquv qoʻllanma va Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, shundan 3 tasi respublika va 10 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 151 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan; tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning muhim yoʻnalishlariga bogʻliqligi koʻrsatilgan; muammoning oʻrganilganlik darajasi yoritilgan; tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan; tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan; olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan; tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilgani, e'lon qilingani, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **"Axborot kommunikatsiya texnologiyalari talabalariga ingliz tilidagi sohaga oid kollokatsiyalarni o'qitishning tamoyillari va muammolari"** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot mavzusi nuqtayi nazaridan ilmiy tahlil amalga oshirilgan. Bunda ta'lim tizimida AKT kollokatsiyalarini o'qitishning o'ziga xos xususiyatlari, tarixi va rivojlanish bosqichlari, shuningdek, nazariy jihatlari (umumiy tamoyillar, lingvistik xususiyatlar va AKT kollokatsiyalarining turlari) bayon etilgan. Bundan tashqari, AKT yo'nalishidagi talabalarga sohaga oid kollokatsiyalarini o'rgatishda duch kelinadigan muammolar va e'tibor berilishi kerak bo'lgan jihatlari muhokama qilingan.

Tadqiqotimizda kollokatsiyalarning lingvistik xususiyatlari o'rganilib chiqildi. Tilshunos olimlar tomonidan kollokatsiya atamasi "sintaktik va semantik jihatdan yaxlit birlikni ifodalovchi ikki yoki undan ortiq so'zlar birikmasi" deb ta'riflanadi. Kollokatsiyalar tilning muhim qismi bo'lib, alohida so'zlarning oddiy yig'indisi emas, balki ma'lum bir kontekstda birgalikda ishlatiladigan so'zlar to'plami hisoblanadi. Bunday birikmalar tilshunoslikda juda muhim ahamiyatga ega bo'lib, so'zlarning bir-biriga bog'lanish qonuniyatlarini o'rganishda va ularning turli kontekstlardagi ishlatilishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Shuningdek, ushbu bobda ingliz va o'zbek tillaridagi sohaga oid kollokatsiyalar qiyosiy tahlili qilindi, bu esa o'z navbatida ular orasidagi o'xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Chet tilini o'rganish jarayonida ona tilining o'quv jarayoniga ham ijobiy, ham salbiy ta'siri bo'lishi mumkin. Birinchi holatda biz transpozitsiyani nazarda tutsak, ikkinchi holat bu interferensiyadir. M.Djusupovning fikricha, transpozitsiya deganda ko'nikmalarning bir tildan ikkinchi tilga ham til shakllanishi tuzilishini, ham ma'no jihatini saqlagan holda o'tishi tushuniladi[7]. Transpositsiyaga misol keltirar ekanmiz, sintaktik jihatdan ba'zi AKT sohasiga oid kollokatsiyalari o'quvchilar tomonidan oson idrok qilinadi, chunki ingliz va o'zbek tillarining so'z tartibi bunday holatda o'xshash bo'ladi. Misol uchun: USB cabel – USB kabel, battery charger – battareya quvvatlagich

Interferensiya haqida gap borar ekan, bu borada ko'plab olimlar o'z fikrlarini bildirgan. Tilning interferensiya tushunchasini birinchi bo'lib tilshunos va sotsiolingvist Uriel Vaynrayx tomonidan uning 1953-yilda chop etilgan "Languages in Contact" nomli nufuzli kitobida kiritilgan va tahlil qilingan. O'z tadqiqotlarida U.Vaynrayx til interferensiyasini bir tildan boshqasiga unsurlar o'tishi deb ta'riflagan, bu jarayon esa o'rganilayotgan tilga xatoliklar yoki o'zgarishlar kiritilishiga olib kelishi mumkin.

Interferentsiya til tizimining barcha jabhalariga ta'sir qiladi, jumladan fonetik, leksik, grammatik, sintaktik, semantik va boshqalar.

Avvalo, biz o'quvchilar nutqida AKT sohasiga oid kollokatsiyalaridan foydalanishda fonetik interferensiyani kuzatishimiz mumkin. E.Budnik ta'kidlaganidek, fonetik interferensiya so'zlovchining ongida ikki yoki undan ortiq tillarning fonetik tizimlari yoki talaffuz me'yorlari o'rtasidagi o'zaro ta'sir

---

[7] Сабирова Г.С. Методика обучения местоимениям английского языка учащихся общеобразовательных школ на основе информационных технологий: Автореф. дисс... д. пед. наук. – Ташкент, 2017. – 28 с.

natijasida ikkilamchi til tizimi va uning me'yorining buzilishi (amalda noto'g'ri talaffuz qilinishi) hisoblanadi.

Misol uchun: "advanced technology" kollokatsiyasi o'zbek o'quvchilari tomonidan [ədˈvɑːnst tɛkˈnɒlədʒi] tarzida emas balki [ədˈvɑːnst tɛxˈnɒlədʒi] deb noto'g'ri talaffuz qilinadi.

Leksik interferensiya esa ona tili leksemalarining chet tiliga ta'sir etishini o'z ichiga oladi.

Misol uchun: o'zbek talabalalari "to access website" kollokatsiyasining o'rniga "to enter website", "surf the internet" kollokatsiyasini esa "use the internet" deb noto'g'ri talqin etadi.

Grammatik interferensiyani biz leksik almashinuv jarayonida ona tilining o'rganilayotgan tildagi gap hamda so'z strukturasiga ta'sir doirasini tushunamiz[8]. Tadqiqot jarayonida biz juda qiziq holatga duch keldik. O'zbek talabalalari ko'p holatlarda -ing, -ed suffikslari yordamida yasalgan sifat so'z turkumini ingliz tilidagi fe'l zamonlari yoki sifatdosh bilan adashtiradilar. Misol uchun, "searching engine" ("qidiruv dasturi") kollokatsiyasi ikkala tilda ham sifat + ot komponentlaridan tashkil topgan va ko'pincha o'quvchilar tomonidan "search engine" ya'ni fe'l + ot komponentli kollokatsiya ko'rinishida nutqda noto'g'ri ishlatadilar.

Sintaktik interferensiya bu bir tilning struktura tizimini o'zlashtirgan holda boshqa bir tilda jumla qurish jarayonidir[9]. Ingliz tilida so'zlarning kollokatsiyadagi tartibini o'zgartirish grammatik ma'noga ta'sir qiladi, biroq o'zbek tilida esa ko'p hollarda grammatik ma'no o'zgarmaydi.

Misol uchun, "to fill an online application" (onlayn ariza to'ldirish) ingliz tilida kollokatsiya hisoblansa, "to fill application online" (onlayn ariza to'ldirmoq) predikativ hisoblanadi.

Semantik interferensiya semantik mazmunning faollashuvi nutq hosil qilish jarayonida to'g'ri so'zni topish va qo'llashga to'sqinlik qiladigan yoki holatni osonlashtiradigan hodisa deb qaraladi[10]. Misol uchun ingliz tilida bir qancha AKT sohasiga oid kollokatsiyalar jumladan bus system, star system, ring system va mesh system o'zbek o'quvchilari tomonidan o'zbek tilidagi semantik farq tufayli butunlay noto'g'ri talqin etiladi. Ingliz tilidagi "bus" so'zi o'zbek tilida "avtobus" – transport vositasi deb semantik qabul qilingani bois so'zning lug'aviy ma'nosini qo'llagan holda to'g'ridan to'g'ri "avtobus tizimi" deb noto'g'ri qabul qilinib, tarjima qilinadi.

Dissertatsiyaning **"AKT yo'nalishi talabalariga ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarini o'rgatishning metodologiyasi"** deb nomlangan ikkinchi bobida ingliz tilida sohaga oid kollokatsiyalarni o'qitishda til korpusining nazariy jihatdan tahlili va ahamiyati yoritilgan.

---

[8] Giusfredi F., Pisaniello V. Contacts of Languages and Peoples in the Hittite and Post-Hittite World: Vol. 4. — Leiden; Boston: Brill, 2023. — 396 p.

[9] Tia M., Jufrizal. L1 Syntactic Interference in ESP Students' Writing Assignments. — Padang: Universitas Negeri Padang, 2020. — 166 p.

[10] Scherpenberg C. Semantic Context Effects on Language Production in Neurotypical Speakers and People with Aphasia: Dissertation. — Leipzig: Universität Leipzig, 2021. — 16 p.

Til korpusi bu kompyuter texnologiyasidan foydalangan holda og'zaki va yozma matnlarning katta to'plamlarini yoki korpuslarni tahlil qilish uchun shug'ullanadigan tilshunoslik sohasi bo'lib, ular tildan foydalanishning muayyan sohalarini, masalan, norasmiy suhbat yoki akademik yozuvlarni ifodalash uchun ishlab chiqilgan[11]. Shuningdek, til korpusi muayyan xususiyatlarga (til, janr, matn yaratilgan davr, muallif va boshqalar) ko'ra yagona tizimda to'plangan haqiqiy (autentik) matnlar majmuasi bo'lib, axborot-qidiruv tizimiga moslashtirilgan hamda til haqida ma'lumot yaratish va tildan qanday foydalanilishini aniqlash uchun xizmat qiladi.

Konkordansning ingliz tilidagi kollokatsiyalarni o'rgatishdagi didaktik xususiyatlari va metodologik funksiyalari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1-jadval

Ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarni o'qitishda konkordansning didaktik xususiyatlari va metodik funksiyalari

№	Ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarni o'qitishda konkordansning didaktik xususiyatlari	Ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarni o'qitishda konkordansning metodik funksiyalari
1	Autentiklik	Talabalarni ingliz tilida sohaga oid kollokatsiyalarning haqiqiy namunalari bilan tanishtiradi, ularning tushunishi va qo'llanilishini takomillashtiradi.
2.	Dolzarblilik	Tegishli matnlarda konkordans satrlarini tanlash orqali talabalarning mutaxasislik sohasi, kasbiy qiziqishlari yoki kundalik hayotiga mos keladigan kollokatsiyalarga e'tibor qaratishlari mumkin.
3.	Ma'no va qo'llanilishga e'tibor qaratish	Talabalar nafaqat so'zlarni, balki ma'lum ma'no va jihatlarini yetkazish uchun boshqa so'zlar bilan qanday birlashishini ham o'rganadilar.
4.	Til bilish darajasini oshirish	Ushbu savodxonlik til ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradi va talabalarga o'z nutqlarida kollokatsiyalarni ongli ravishda to'g'ri tanlov qilish imkonini beradi.
5.	Mustaqil ta'limni shakllantirish	Talabalar til namunalarini mustaqil o'rganish uchun konkordans vositalari va ma'lumotlar bazalaridan foydalanishlari mumkin, bu esa o'quv xonasidan tashqarida mustaqil o'rganish va tilni tadqiq qilishni rag'batlantiradi.
6.	Til korpusini tadbiq etish	O'qituvchilar til korpusga asoslangan mashg'ulotlarni o'quv dasturiga kiritishlari, talabalarga kengroq til haqidagi ma'lumotlarni tanishtirishlari va til o'rgatishda ma'lumotlarga asoslangan yondashuvni (Data-driven learning) tadbiq qilishlari mumkin.

---

[11] Conrad, S. Will corpus linguistics revolutionize grammar teaching in the 21st century? // TESOL Quarterly. – Washington, D.C.: Teachers of English to Speakers of Other Languages. 2000. № 34. –P. 548–560.

Yuqorida ta'kidlanganidek, konkordans lingvistik qidiruv tizimlariga o'xshash bo'lib, xuddi shunday vazifani korpus menejerlari ham bajaradi. Quyidai ingliz tilida sohaga oid kollokatsiyalarini o'qitishda korpus menejerining didaktik xususiyatlari va metodik funksiyalari keltirilgan:

<div align="right">**2-jadval**</div>

<div align="center">**Ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarni o'qitishda korpus menejerining didaktik xususiyatlari va metodik funksiyalari**</div>

№	Ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarni o'qitishda korpus menejerining didaktik xususiyatlari.	Ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarni o'qitishda korpus menejerining metodik funksiyalari.
1.	Ma'lumotlarga asoslangan tadqiqot	Bu talabalarga so'zlarning turli matnlarda tabiiy ravishda qanday birikishini kuzatishga yordam beradi.
2.	Matnni tushunish	Bu talabalarga kollokatsiyalardan foydalanishning asosiy jihatlarini anglashga yordam beradi.
3.	Chastota tahlili	Ushbu ma'lumotlar talabalarga turli vaziyatlarda ko'proq uchraydigan yuqori chastotali birikmalarga e'tibor qaratish va ularni ustuvor o'rganishga yordam beradi.
4.	Moslashuvchanlik	Bu moslashuvchanlik talabalarning o'ziga xos ehtiyojlariga mos keladigan mashqlar va faoliyatlardan foydalanish imkonini beradi.
5.	Talabalar (o'rganuvchi) mustaqilligi	Bu o'z-o'zini boshqaradigan ta'limni rag'batlantiradi, talabalarga til o'zlashtirish jarayonini o'z qo'llariga olish imkonini beradi.
6.	Boshqa til ko'nikmalari bilan uyg'unlashtirish	Uni o'qish, yozish va gapirish kabi turli til ko'nikmalariga singdirib borish mumkin.

Shuningdek, AKT yo'nalishi talabalariga til korpusi asosida ingliz tilida sohaga oid kollokatsiyalarini o'rgatish texnologiyasi tadqiqot ishi maqsadlariga tayangan holda yaratiladi. Bu yondashuv talabalarning kollokatsiyalarga doir bilimini oshirishga, AKT sohasiga oid kollokatsiyalarning tuzilishi va qo'llanilishini o'rgatishga, hamda ularni yozma va og'zaki nutqda aniq va ravon qo'llash ko'nikmalarini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur yondashuv ma'lumotlarga asoslangan o'rganish (Data-driven learning) va induktiv metodlarni (Inductive Method) birlashtiradi, bu esa samarali til o'qitish va kontekstli o'rganish tamoyillariga asoslanadi.

Texnologiya, shuningdek, AKT sohasiga oid kollokatsiyalarni kundalik ingliz tili nutqiga kiritish orqali talabalarning nutqiy ravonligini oshirishga qaratilgan. Ma'lumotlarga asoslangan mashqlar va korpuslardagi autentik matn namunalari orqali talabalar suhbatlar, taqdimotlar va munozaralarda AKT sohasiga oid kollokatsiyalardan foydalanishni mashq qiladilar, aniqlik va ravonlikni oshiradi.

Interaktiv va interfaol ta'lim muhitini yaratish uchun Content and Language Integrated Learning (CLIL) va Data-Driven Learning (DDL) kabi yondashuvlar qo'llaniladi. NOW(Corpus of News on the Web) korpusi orqali talabalarga ingliz

tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarni o'rgatishda Data-Driven Learning (DDL)ni qo'llashning afzalliklari ham lingvistik ham kognitiv ahamiyatga egadir. Bu afzalliklarga quyidagilar kiradi:

<div align="right">**3-jadval**</div>

NOW korpusi orqali talabalarga ingliz tilida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarni o'rgatishda Data-Driven Learning (DDL) ni qo'llashningning afzalliklari

№	Afzalliklari	Vazifalari
1.	Autentik ma'lumotlarni tadbiq etish	DDL talabalarga autentik ma'lumotlar bilan ishlashga imkon beradi, ularga AKT sohasiga oid kollokatsiyalarni kontekstlarda qanday tabiiy ravishda ishlatilishini ifodalab beradi. Bu yondashuv talabalarni sun'iy yoki darslik namunalariga tayanishdan farqli o'laroq, o'z sohasiga mos til namunalarini o'rganishini ta'minlaydi.
2.	Markazida talaba ta'limi	DDL yondashuvi amaliy, tadqiqotlarga asoslangan ta'lim jarayoniga zamin yaratadi. Talabalar korpuslardan olingan til ma'lumotlarini faol tahlil qiladilar, bu ularga AKT sohasiga oid kollokatsiyalarning qonuniyatlari, tuzilishi va chastotasini tushunish imkonini beradi. Bu usul chuqurroq o'rganish va eslab qolishga yordam beradi, chunki talabalar ma'lumotni passiv qabul qilish o'rniga qoidalarni o'zlari keltirib chiqaradilar.
3.	Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim	DDL yondashuvi asosida talabalar ma'lum bir AKT sohasiga doir mavzularni o'rganishlari mumkin. Ushbu moslashuvchanlik ularga o'z ehtiyojlari va kasbiy maqsadlariga eng mos keladigan kollokatsiyalarga e'tibor qaratish, yanada moslashtirilgan o'quv tajribasini shakllantirish imkonini beradi.
4.	Mustaqil ta'limni oshirish	DDL yondashuvi talabalarga tilni mustaqil tahlil qilish vositalari va ko'nikmalarini tadbiq etish orqali talabalar mustaqilligini rivojlantiradi. Ular korpuslar bilan o'zaro munosabatda bo'lishlari bilan tanqidiy fikrlash va analitik ko'nikmalarni rivojlantiradilar, bu esa ularni auditoriyadan tashqarida AKT sohasiga oid kollokatsiyalarni mustaqil o'rganishga imkon beradi.
5.	Aniqlik va ravonlikni rivojlantirish	Autentik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali talabalar AKT sohasiga oid kollokatsiyalarni qanday qo'llash haqida aniqroq tushunchaga ega bo'ladilar, bu esa ulardan yanada aniq va ravon foydalanishga olib keladi.

